XALQ DEPUTATLARI JIZZAX SHAHAR KENGASHINING QARORI

2022 - yil 5 - yanvar VI-36-2-3-55-K/22 Jizzax shahar hokimligi

Jizzax shahar hududida joylashgan yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i bo'yicha 2022 yilda soliq stavkasiga qo'llaniladigan koeffitsiyentni tasdiqlash to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 429, 437-moddalari (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 31.12.2019 y., 02/19/SK/4256-son), O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-dekabrdagi PF-6121-sonli “Resurs soliqlari va mol-mulk solig'ini yanada takomillashtirish to'g'risida”gi Farmoni (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 03.12.2020 y., 06/20/6121/1590-son), Xalq deputatlari Jizzax viloyati Kengashining 2021-yil 16-noyabrdagi 29-75-3-0-K/21-sonli qarori ijrosini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida”gi Qonunining (O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1993 y., 9-son, 320-modda) 6, 24-moddalariga asosan xalq deputatlari Jizzax shahar Kengashi

QAROR QILADI:

1. Jizzax shahri uchun 2022 yilgi kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlarni belgilash yuzasidan Moliya bo'limi va Davlat soliq inspektsiyasining takliflari ma'qullansin.

2. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 429-moddasiga muvofiq Jizzax shahar uchun belgilangan bazaviy soliq stavkasi asosida qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yerlar bo'yicha yuridik shaxslar uchun mahallalar kesimida mutlaq o'lchamda 1 ga. uchun soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 437-moddasiga muvofiq jismoniy shaxslar (bundan dehqon xo'jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo'jaligi uchun mo'ljallangan yerlar mustasno) uchun mutlaq o'lchamda 1 kv.m uchun Jizzax shahrida hududlar kesimida bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Shahar hokimining birinchi o'rinbosari (J.Tojiboyev), Moliya bo'limi (A.Abdujalilov), shahar DSI (E.Erkaboyev) 2022 yildagi byudjet-soliq siyosatidagi o'zgarishlar, soliqlar va to'lovlar stavkalari, soliq solish tartiblari hamda boshqa ma'lumotlarni ommaviy axborot vositalari orqali yoritilishini ta'minlasin.

5. Ushbu qaror “Jizzax ovozi” gazetasida chop etilsin va shahar hokimligining jizzaxcity.jizzax.uz rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

6. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari shahar Kengashining Mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi (Sh.Azimov) hamda shahar hokimining birinchi o'rinbosari (J.Tojiboyev) zimmasiga yuklatilsin.

7. Ushbu qaror 2022-yil 1-yanvaridan boshlab kuchga kiradi.

Kengash raisi v.b **M.Imomov**

Халқ депутатлари Жиззах шаҳар
Кенгашининг
2022 йил 5 январдаги
VI-36-2-3-55-K/22-сон қарорига
1-илова

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 429-moddasiga muvofiq Jizzax shahar uchun belgilangan bazaviy soliq stavkasi asosida qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yerlar bo'yicha yuridik shaxslar uchun mahallalar kesimida mutlaq o'lchamda 1 ga. uchun soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar

T/R	Mahallalar	Soliq kodeksining 429-moddasiga asosan 1 gektar uchun bazaviy soliq stavkasi, (mln.so'mda)	Xalq deputatlari shahar Kengashi tomonidan qo'llanilgan koeffitsiyent (0,7-3,0)		Mahallalar kesimida 1 gektar uchun yer solig'i, (mln.so'mda)
			kamaytiruvchi	oshiruvchi	
1	***2***	***3***	***4***	***5***	***6***
1	Yoshlik MFY	**36,3**		1,10	39,9
2	Bunyodkor MFY	**36,3**		1,10	39,9
3	Ittifoq MFY	**36,3**		1,10	39,9
4	Qaliya MFY	**36,3**		1,00	36,3
5	Do'stlik MFY	**36,3**		1,00	36,3
6	Bobur MFY	**36,3**		1,10	39,9
7	M.Ulug'bek MFY	**36,3**		1,10	39,9
8	Nurliobod MFY	**36,3**		1,20	43,5
9	H.Olimjon MFY	**36,3**		1,20	43,5
10	Tinchlik MFY	**36,3**		1,20	43,5
11	A.Navoiy MFY	**36,3**		1,10	39,9
12	Xayrobod MFY	**36,3**	0,90		32,6
13	Sayxon MFY	**36,3**		1,00	36,3
14	Obod MFY	**36,3**		1,20	43,5
15	Kimyogar MFY	**36,3**		1,20	43,5
16	Madaniyat MFY	**36,3**		1,10	39,9
17	Jizzaxlik MFY	**36,3**		1,20	43,5
18	Xalqabod MFY	**36,3**		1,10	39,9
19	O'ratepalik MFY	**36,3**		1,00	36,3
20	Qassoblik MFY	**36,3**		1,00	36,3
21	Uchariq MFY	**36,3**		1,00	36,3
22	Oqqo'rg'onlik MFY	**36,3**		1,00	36,3

23	Olmazor MFY	**36,3**		1,00	36,3
24	Ravalliq MFY	**36,3**		1,10	39,9
25	Zilol MFY	**36,3**		1,00	36,3
26	Navro'z MFY	**36,3**	0,90		32,6
27	Amir Temur MFY	**36,3**		1,10	39,9
28	Sangzor MFY	**36,3**	0,90		32,6
29	Shodlik MFY	**36,3**		1,20	43,5
30	Toshloq MFY	**36,3**		1,00	36,3
31	Bog'ishamol MFY	**36,3**		1,00	36,3
32	Turon MFY	**36,3**		1,20	43,5
33	Zargarlik MFY	**36,3**		1,00	36,3
34	Sayiljoyi MFY	**36,3**		1,10	39,9

Халқ депутатлари Жиззах шаҳар
Кенгашининг
2022 йил 5 январдаги
VI-36-2-3-55-K/22-сон қарорига
2-илова

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 437-moddasiga muvofiq jismoniy shaxslar (bundan dehqon xo'jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo'jaligi uchun mo'ljallangan yerlar mustasno) uchun mutlaq o'lchamda 1 kv.m uchun Jizzax shahrida hududlar kesimida bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar

T/R	Mahallalar	Soliq kodeksining 437-moddasiga asosan 1 kv.m. uchun bazaviy soliq stavkasi, (so'mda)	Xalq deputatlari shahar Kengashi tomonidan qo'llanilgan koeffitsiyent (0,7-3,0)		Mahallalar kesimida 1 kv.m. uchun yer solig'i, (so'mda)
			kamaytiruvchi	oshiruvchi	
1	***2***	***3***	***4***	***5***	***6***
1	Yoshlik MFY	**429,0**		1,10	471,90
2	Bunyodkor MFY	**429,0**	0,90		386,10
3	Ittifoq MFY	**429,0**		1,15	493,35
4	Qaliya MFY	**429,0**	0,90		386,10
5	Do'stlik MFY	**429,0**	0,90		386,10
6	Bobur MFY	**429,0**		1,15	493,35
7	M.Ulug'bek MFY	**429,0**		1,00	429,00
8	Nurliobod MFY	**429,0**	0,95		407,55
9	H.Olimjon MFY	**429,0**	0,95		407,55
10	Tinchlik MFY	**429,0**		1,10	471,90
11	A.Navoiy MFY	**429,0**		1,10	471,90
12	Xayrobod MFY	**429,0**	0,90		386,10
13	Sayxon MFY	**429,0**	0,85		364,65
14	Obod MFY	**429,0**		1,10	471,90
15	Kimyogar MFY	**429,0**		1,15	493,35
16	Madaniyat MFY	**429,0**		1,15	493,35
17	Jizzaxlik MFY	**429,0**		1,00	429,00
18	Xalqabod MFY	**429,0**		1,10	471,90
19	O'ratepalik MFY	**429,0**		1,10	471,90
20	Qassoblik MFY	**429,0**		1,10	471,90
21	Uchariq MFY	**429,0**		1,10	471,90
22	Oqqo'rg'onlik MFY	**429,0**		1,10	471,90

23	Olmazor MFY	**429,0**		1,10	471,90
24	Ravalliq MFY	**429,0**		1,10	471,90
25	Zilol MFY	**429,0**		1,10	471,90
26	Navro'z MFY	**429,0**		1,10	471,90
27	Amir Temur MFY	**429,0**	0,90		386,10
28	Sangzor MFY	**429,0**	0,90		386,10
29	Shodlik MFY	**429,0**	0,85		364,65
30	Toshloq MFY	**429,0**		1,10	471,90
31	Bog'ishamol MFY	**429,0**	0,90		386,10
32	Turon MFY	**429,0**		1,10	471,90
33	Zargarlik MFY	**429,0**		1,15	493,35
34	Sayiljoyi MFY	**429,0**		1,10	471,90